



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

DOI: 10.67227

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 6

2026

SARBADORLAR HAKKATINING TARIXIY TADQIQOTLARDA YORITILISHI

Maxmudov Abdumalik Jumanazar o'g'li

Farg'ona davlat universiteti, doktorant

Annotatsiya

Mazkur maqolada sarbadorlar harakatining tarixiy tadqiqotlarda yoritilishi masalalari tahlil qilinadi. O'rta asr tarixiy manbalari hamda zamonaviy tarixshunoslik materiallari asosida sarbadorlar harakatining kelib chiqishi, rivojlanishi va tarixiy ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, Sharofiddin Ali Yazdiy, Nizomiddin Shomiy, Muiniddin Natanziy kabi o'rta asr mualliflarining qarashlari tahlil qilinib, ularning sarbadorlar haqidagi ma'lumotlari tarixshunoslik nuqtai nazaridan baholangan.

Kalit so'zlar: Sarbadorlar, Movarounnahr, Xuroson, Amir Temur, tarixshunoslik, mo'g'ullar, xalq harakati, o'rta asr manbalari.

ОСВЕЩЕНИЕ ДВИЖЕНИЯ САРБАДАРОВ В ИСТОРИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЯХ

Махмудов Абдумалик Джуманазар угли

Ферганский государственный университет, докторант

Аннотация

В статье анализируется освещение движения сарбадаров в исторических исследованиях. На основе средневековых источников и современных историографических материалов раскрываются вопросы происхождения, развития и исторического значения движения сарбадаров. Особое внимание уделяется анализу взглядов Шараф ад-Дина Йезди, Низам ад-Дина Шами и Муин ад-Дина Натанзи.

Ключевые слова: сарбадары, Мавераннахр, Хорасан, Амир Темура, историография, монголы, народное движение, средневековые источники.

THE REPRESENTATION OF THE SARBADAR MOVEMENT IN HISTORICAL STUDIES

Maxmudov Abdumalik Jumanazar o'g'li

Fergana State University, Doctoral Student

Abstract

This article examines the representation of the Sarbadar movement in historical studies. Based on medieval chronicles and modern historiographical works, the origins, development, and historical significance of the Sarbadar movement are analyzed. Particular attention is paid to the views of Sharaf al-Din Yazdi, Nizam al-Din Shami, and Muin al-Din Natanzi and their contribution to the historiography of the Sarbadar movement.

Keywords: Sarbadars, Mawarannahr, Khorasan, Amir Timur, historiography, Mongols, popular movement, medieval sources.

XIV asr Markaziy Osiyo va Xuroson tarixida tub siyosiy o'zgarishlar yuz bergan davr hisoblanadi. Chig'atoy ulusi va Elxoniylar davlatida markaziy hokimiyatning zaiflashuvi, mahalliy amirlarning kuchayishi hamda mo'g'ullar hukmronligiga qarshi kayfiyatlarning ortib borishi natijasida qator xalq harakatlari yuzaga kelgan. Ana shunday harakatlardan biri sarbadorlar harakati bo'lib, u dastlab Xurosonda shakllanib, keyinchalik Movarounnahr hududlarida ham muhim siyosiy kuch sifatida namoyon bo'lgan. Sarbadorlar harakati masalasi uzoq yillardan buyon tarixchilar e'tiborida bo'lib kelmoqda. Mazkur harakatning mohiyati, ijtimoiy tarkibi, siyosiy maqsadlari va tarixiy ahamiyati haqida turli davrlarda turlicha qarashlar shakllangan. Ayniqsa, sarbadorlar harakatining mo'g'ullar hukmronligiga qarshi kurashdagi o'rni, uning Amir Temur faoliyati bilan bog'liq jihatlari hamda Samarqand sarbadorlarining siyosiy faoliyati tarixshunoslikda bahsli masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Sarbadorlar harakatini o'rganishda XV asr tarixchilari asarlari alohida ahamiyatga ega. Sharofiddin Ali Yazdiy, Nizomiddin Shomiy, Muiniddin Natanziy, Mirxond va Xondamir kabi mualliflarning asarlarida sarbadorlar haqida muhim ma'lumotlar uchraydi. Keyinchalik rus sharqshunoslari, g'arb eronshunoslari va zamonaviy tarixchilar ushbu ma'lumotlarni tahlil qilib, yangi ilmiy xulosalarni ilgari surganlar.

Mazkur maqolaning maqsadi sarbadorlar harakatining tarixiy tadqiqotlarda yoritilishi masalalarini o'rganish, o'rta asr manbalarida keltirilgan ma'lumotlarni tahlil qilish va tarixshunoslikdagi asosiy yondashuvlarni aniqlashdan iborat.

TADQIQOT METODOLOGIYASI (MATERIALS AND METHODS)

Tadqiqot davomida tarixiylik, xolislik, qiyosiy tahlil va tarixshunoslik metodlaridan foydalanildi. Sarbadorlar harakati haqidagi ma'lumotlar o'rta asr manbalari va zamonaviy ilmiy adabiyotlar asosida qiyosiy tahlil qilindi. Tadqiqotning manbaviy bazasini Sharofiddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma", Nizomiddin Shomiyning "Zafarnoma", Muiniddin Natanzining "Muntaxab ut-tavorix" asarlari tashkil etadi. Mazkur manbalar keyingi davr tarixchilari tadqiqotlari bilan qiyoslandi va tarixshunoslikdagi asosiy qarashlar aniqlashtirildi. Shuningdek, sarbadorlar harakati bo'yicha Rossiya, Yevropa va Markaziy Osiyo tarixchilari tomonidan yaratilgan ilmiy adabiyotlar tahlil qilindi.

O'rta asr manbalarida sarbadorlar harakatining yoritilishi

Sarbadorlar harakati haqidagi eng qadimgi ma'lumotlar XIV–XV asr tarixiy manbalarida uchraydi. Mazkur manbalarning aksariyati Amir Temur davri tarixiga bag'ishlangan bo'lib, sarbadorlar faoliyati ham aynan shu voqealar bilan bog'liq holda yoritilgan.

Sharofiddin Ali Yazdiy asarlarida sarbadorlar. Sharofiddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma" asari Amir Temur davri tarixini o'rganishda eng muhim manbalardan biri hisoblanadi. Asarda 1365-yilda Samarqandda yuz bergan voqealar va sarbadorlarning mo'g'ullarga qarshi kurashi haqida ma'lumotlar keltirilgan [5; 37-38]. Yazdiy Samarqand sarbadorlarining shahar mudofaasidagi xizmatlarini qayd etadi. Muallifning ma'lumotlariga ko'ra, Loy jangidan so'ng Amir Husayn va Amir Temur qo'shinlari chekingach, Samarqand mudofaasiz qolgan. Ana shunday murakkab vaziyatda Mavlonozoda boshchiligidagi sarbadorlar xalqni safarbar etib, mo'g'ullarga qarshi kurashni tashkil qilganlar [5; 40].

Biroq Sharofiddin Ali Yazdiy sarbadorlarni mustaqil siyosiy kuch sifatida emas, balki Amir Temur hokimiyatga kelishi arafasidagi voqealarning bir qismi sifatida tasvirlaydi. Bu holat muallifning asari Temuriylar saroyi buyurtmasi asosida yozilganligi bilan izohlanadi.

Nizomiddin Shomiy qarashlari. Nizomiddin Shomiyning "Zafarnoma" asari sarbadorlar haqidagi muhim ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Muallif Samarqand sarbadorlari faoliyatini yoritishda ko'proq siyosiy voqealarga e'tibor qaratadi [6; 33]. Shomiyning yozishicha, Samarqand aholisi mo'g'ullar hujumiga qarshi uyushgan holda kurash olib borgan va shaharni himoya qilishda muhim muvaffaqiyatlarga erishgan. Asarda sarbadorlarning ichki siyosati yoki tashkiliy tuzilmasi haqida batafsil ma'lumot berilmagan bo'lsa-da, ularning xalq orasidagi obro'si va ta'siri sezilib turadi [6; 50]. Tadqiqotchilar fikricha, Shomiy asari sarbadorlar harakatining siyosiy tarixini tiklashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Muiniddin Natanziy va sarbadorlar masalasi. Sarbadorlar harakati tarixini o'rganishda Muiniddin Natanzining "Muntaxab ut-tavorix" asari alohida ahamiyatga ega. Muallif Loy jangidan keyingi siyosiy vaziyatni batafsil tasvirlaydi va Movarounnahrning og'ir ahvolga tushib qolganligini qayd etadi [15; 65].

Natanzining yozishicha, Amir Husayn va Amir Temur qo'shinlari chekingach, mamlakat deyarli himoyasiz qolgan. Mahalliy amirlarning aksariyati o'z hududlarini tark etgan va aholi mo'g'ullar bosqini xavfi ostida qolgan edi [15; 68]. Aynan ana shunday sharoitda sarbadorlar xalqni birlashtirib, Samarqand mudofaasini tashkil etganlar. Muallif bu voqealarni xalq tashabbusi natijasi sifatida ko'rsatadi. Shu jihatdan Natanziy ma'lumotlari sarbadorlar harakatining ijtimoiy asoslarini o'rganishda muhim manba hisoblanadi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, o'rta asr mualliflari sarbadorlar harakati haqida ma'lumot bergan bo'lsalar-da, ularning asosiy e'tibori Amir Temur davri siyosiy voqealariga qaratilgan. Shu sababli sarbadorlar faoliyati ko'pincha ikkinchi darajali masala sifatida yoritilgan. Biroq aynan ushbu manbalar keyingi davr tarixchilari uchun asosiy ma'lumot manbai bo'lib xizmat qilgan. XIX–XX asr tarixchilari sarbadorlar harakati haqidagi ilmiy qarashlarini aynan shu manbalar asosida shakllantirganlar.

Rossiya sharqshunosligida sarbadorlar harakatining o'rganilishi. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Sharq xalqlari tarixini ilmiy asosda o'rganish jarayonida sarbadorlar harakati ham tarixchilar e'tiborini torta boshladi. Ayniqsa, rus sharqshunoslik maktabi vakillari tomonidan Movarounnahr va Xuroson tarixining siyosiy jarayonlari chuqur tadqiq qilinishi natijasida sarbadorlar harakati haqidagi ilmiy qarashlar shakllandi.

Rossiya sharqshunosligi vakillari orasida V.V. Bartold, A.Yu. Yakubovskiy va keyinchalik B.G'afurov kabi olimlarning ishlari alohida ahamiyatga ega bo'ldi. Ularning tadqiqotlari keyingi tarixshunoslik rivojiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi.

V.V. Bartold tadqiqotlarida sarbadorlar harakati. Mashhur rus sharqshunosi V. Bartold Markaziy Osiyo tarixini ilmiy asosda o'rganishga katta hissa qo'shgan olimlardan biridir. Uning Movarounnahr va Chig'atoy ulusi tarixiga bag'ishlangan tadqiqotlarida sarbadorlar harakati haqida ham muhim mulohazalar uchraydi. Bartold Samarqand sarbadorlari harakatini Xurosondagi sarbadorlar

harakatidan farqlab ko'rsatadi. Olimning fikricha, Samarqanddagi harakatning asosiy maqsadi mo'g'ul bosqinchilariga qarshi shahar mudofaasini tashkil etishdan iborat bo'lgan. U sarbadorlarni avvalo tashqi dushmanga qarshi kurashgan kuch sifatida baholaydi [1; 74]. Bartoldning eng muhim xulosalaridan biri shundan iboratki, Samarqand sarbadorlari o'z hukmdorlariga emas, balki tashqi bosqinchilarga qarshi kurashganlar. Shu jihatdan u Samarqand sarbadorlari va Xuroson sarbadorlari faoliyati o'rtasida muayyan farqlar mavjudligini ta'kidlaydi [2; 82].

A.Yu. Yakubovskiy qarashlari. Sarbadorlar harakati tarixini o'rganishda Aleksandr Yuryevich Yakubovskiy ning tadqiqotlari ham muhim o'rin tutadi.

Yakubovskiy Amir Temur davri siyosiy jarayonlarini tahlil qilar ekan, sarbadorlar masalasiga ham alohida to'xtaladi. Olimning fikricha, Amir Temur va sarbadorlar o'rtasidagi aloqalar 1365-yildagi Samarqand voqealaridan oldinroq shakllangan bo'lishi mumkin [3; 73].

Yakubovskiy sarbadorlar harakatining siyosiy salohiyatiga yuqori baho beradi. U Mavlonozoda va uning safdoshlari qisqa vaqt ichida katta xalq ommasini safarbar eta olganligini ta'kidlaydi. Olimning fikricha, bunday natijaga erishish uchun sarbadorlar oldindan shakllangan muayyan tashkiliy tuzilmaga ega bo'lgan bo'lishlari mumkin [3; 84]. Bu qarash keyinchalik ko'plab tarixchilar tomonidan qo'llab-quvvatlandi. Xususan, sarbadorlar harakatining ildizlari Samarqand voqealaridan avvalgi davrga borib taqalishi haqidagi fikrlar zamonaviy tarixshunoslikda ham uchraydi. Yakubovskiyning yana bir muhim xulosasi shundan iboratki, sarbadorlar harakati va Amir Temur faoliyati o'rtasida ma'lum siyosiy bog'liqlik mavjud bo'lgan. Bu masala bugungi kunda ham tarixchilar orasida bahsli masalalardan biri bo'lib qolmoqda. XX asrning ikkinchi yarmida sovet tarixshunosligida sarbadorlar harakatiga nisbatan yangi yondashuv shakllandi. Bu davr tarixchilari harakatning ijtimoiy mohiyatiga alohida e'tibor qaratdilar. Sovet tarixshunosligi vakillari sarbadorlarni ko'pincha xalq ommasining feodal zulm va bosqinchilikka qarshi kurashining ifodasi sifatida talqin qildilar. Marksistik metodologiya ta'sirida harakatning sinfiy jihatlariga katta e'tibor berildi. Shu davr tadqiqotlarida sarbadorlar harakati hunarmandlar, mayda savdogarlar va kambag'al qatlamlar manfaatlarini ifoda etgan xalq harakati sifatida tavsiflandi. Biroq ayrim hollarda bu yondashuv harakatning diniy va milliy jihatlarini ikkinchi darajaga tushirib qo'ydi.

B. G'afurov tadqiqotlarida sarbadorlar. Tojikiston tarixshunosligi maktabining yirik vakili G'afurov ham sarbadorlar masalasiga alohida e'tibor qaratgan. G'afurov sarbadorlar harakatining tarixiy ildizlari ancha chuqur ekanligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, Samarqanddagi sarbadorlar harakati tasodifan yuzaga kelmagan, balki uzoq vaqt davomida shakllangan siyosiy va ijtimoiy jarayonlarning mahsuli bo'lgan. Olim Samarqand sarbadorlarining qisqa muddat ichida katta xalq ommasini safarbar eta olganligini ularning oldindan shakllangan tashkilotga ega bo'lganligi bilan izohlaydi. [4; 214-218]. G'afurovning ushbu qarashlari keyinchalik Markaziy Osiyo tarixchilari tomonidan rivojlantirildi va sarbadorlar harakatining shakllanish bosqichlari haqidagi ilmiy bahslarning yuzaga kelishiga sabab bo'ldi.

Rossiya va sovet tarixshunosligida sarbadorlar harakatini o'rganish bir necha bosqichda rivojlandi.

Birinchi bosqichda (XIX asr oxiri – XX asr boshlarida) asosiy e'tibor siyosiy voqealar va tarixiy faktlarni aniqlashga qaratildi. Bu davrning eng yirik vakili Bartold hisoblanadi.

Ikkinchi bosqichda (XX asr o'rtalarida) Yakubovskiy va boshqa tarixchilar sarbadorlar harakatining siyosiy hamda ijtimoiy mohiyatini tahlil qila boshladilar. *Uchinchi bosqichda* esa sovet tarixshunosligi ta'sirida harakatning sinfiy va ijtimoiy jihatlarini oldingi o'ringa chiqdi.

Rossiya sharqshunosligining asosiy yutug'i shundaki, u sarbadorlar harakatini ilk bor ilmiy tadqiqot obyektiga aylantirdi va keyingi g'arb hamda Markaziy Osiyo tarixchilari uchun mustahkam ilmiy asos yaratdi.

G'arb tarixshunosligida sarbadorlar harakatining o'rganilishi. XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab sarbadorlar harakati Yevropa va Amerika tarixchilari tomonidan ham faol tadqiq qilina boshlandi. G'arb tarixshunosligining muhim xususiyati shundaki, unda sarbadorlar harakati faqat siyosiy hodisa sifatida emas, balki diniy, ijtimoiy va mafkuraviy jarayonlar bilan bog'liq holda o'rganildi. Ayniqsa, fransuz, ingliz va amerikalik sharqshunoslar sarbadorlar davlatining shakllanishi, uning ijtimoiy bazasi hamda mo'g'ullardan keyingi davr siyosiy hayotidagi o'rnini aniqlashga harakat qildilar.

Jean Aubin tadqiqotlarida sarbadorlar. Fransuz sharqshunosi Jean Aubin sarbadorlar tarixini maxsus tadqiq qilgan olimlardan biri hisoblanadi. Uning ilmiy ishlari sarbadorlar harakatining diniy va mafkuraviy jihatlarini o'rganishda muhim ahamiyatga ega. Aubin sarbadorlar harakatining shakllanishida diniy omillar muhim rol o'ynaganligini ta'kidlaydi. U ayniqsa Shayx Hasan Juriy faoliyatiga alohida e'tibor qaratadi. Olimning fikricha, sarbadorlar harakatining ommalashuviga tasavvufiy g'oyalar va diniy targ'ibot muhim o'rin tutgan. Aubin sarbadorlarni faqat siyosiy kuch sifatida emas, balki diniy-

mafkuraviy harakat sifatida ham baholaydi. Uning tadqiqotlari natijasida sarbadorlar tarixini o'rganishda yangi yo'nalish – diniy-siyosiy tahlil shakllandi [7; 97].

John Masson Smith Jr. va manbashunoslik masalalari. Amerikalik tarixchi John Masson Smith Jr. sarbadorlar sulolasi tarixiga bag'ishlangan maxsus monografiya muallifi sifatida tarixshunoslikda alohida o'rin egallaydi. Uning "The History of the Sarbadar Dynasty (1336–1381 A.D.) and Its Sources" nomli tadqiqoti sarbadorlar tarixini o'rganishdagi eng muhim ilmiy ishlardan biri hisoblanadi [8; 101]. Smithning asosiy e'tibori manbashunoslik masalalariga qaratilgan. Olim sarbadorlar haqidagi ko'plab tarixiy ma'lumotlar voqealardan bir necha o'n yillar keyin yozilganligini ta'kidlaydi. Shu sababli u mavjud manbalarni tanqidiy tahlil qilish zarurligini qayd etadi. Smithning fikricha, sarbadorlar davlati Elxoniylar davlati parchalanishi natijasida yuzaga kelgan siyosiy bo'shliq mahsuli bo'lgan. U harakatning shakllanishida iqtisodiy va siyosiy omillarni asosiy sabablar qatorida ko'rsatadi [8]. Bugungi kunda ham ko'plab g'arb tarixchilari sarbadorlar tarixi bo'yicha aynan Smith tomonidan ishlab chiqilgan manbashunoslik tamoyillariga tayanadilar. **Bertold Spuler qarashlari.** Nemis sharqshunosi Bertold Spuler mo'g'ullar davri va undan keyingi siyosiy jarayonlarni o'rgangan yirik olimlardan biridir.

Spuler sarbadorlar davlatini mo'g'ullar hukmronligidan keyingi davrda shakllangan mahalliy siyosiy tuzilmalarning eng muhimlaridan biri sifatida baholaydi [9; 69]. Uning fikricha, sarbadorlar mahalliy aholining siyosiy mustaqillikka intilishi natijasida yuzaga kelgan. Shu sababli sarbadorlar davlati mo'g'ullar hukmronligining zaiflashuvi va mahalliy kuchlarning siyosiy faollashuvi bilan chambarchas bog'liq edi. Spuler harakatning siyosiy jihatlariga ko'proq e'tibor qaratib, uning diniy tomonlarini ikkinchi darajali omil sifatida baholaydi. **C.E. Bosworth tadqiqotlarida sarbadorlar.** Mashhur ingliz sharqshunosi Clifford Edmund Bosworth sarbadorlar davlatini XIV asr Eron va Xuroson tarixidagi muhim siyosiy tuzilmalardan biri sifatida tavsiflaydi [10; 102]. Bosworthning fikricha, sarbadorlar mo'g'ullar hukmronligidan keyingi davrda mahalliy siyosiy boshqaruvni tiklashga uringan kuchlar qatoriga kiradi. U sarbadorlar davlatining mavjudligi mintaqada markazlashgan siyosiy tuzumni qayta tiklash yo'lidagi muhim bosqich bo'lganligini ta'kidlaydi. Bosworth sarbadorlar tarixini mo'g'ullardan keyingi musulmon davlatlari rivojlanishi bilan bog'liq holda o'rganadi. Shu jihatdan uning tadqiqotlari harakatning xalqaro tarixiy kontekstdagi o'rnini aniqlashda muhim ahamiyatga ega.

Denise Aigle va zamonaviy tarixshunoslik. Zamonaviy eronshunoslikning yirik vakillaridan biri bo'lgan Denise Aigle sarbadorlar masalasiga yangicha yondashuv olib kirgan olim hisoblanadi.

Aigle sarbadorlarni "Shimoliy Xurosondagi diniy-siyosiy harakat" sifatida tavsiflaydi. Uning fikricha, sarbadorlar davlatining shakllanishiga Elxoniylar davlatining inqirozi, iqtisodiy qiyinchiliklar va mahalliy siyosiy guruhlar o'rtasidagi kurashlar sabab bo'lgan [11; 142]. Tadqiqotchi sarbadorlar tarkibida diniy arboblardan, hunarmandlardan, mayda yer egalari va shaharlik qatlam vakillari faol qatnashganligini ta'kidlaydi. Shu sababli u sarbadorlar harakatini faqat siyosiy yoki diniy hodisa sifatida emas, balki murakkab ijtimoiy-siyosiy jarayon sifatida baholaydi [11; 135]. Aiglening tadqiqotlari bugungi kunda sarbadorlar tarixi bo'yicha eng nufuzli ilmiy ishlardan biri hisoblanadi.

Beatrice Forbes Manz qarashlari. Amerikalik tarixchi Beatrice Forbes Manz Amir Temur davri tarixini tadqiq etgan eng yirik mutaxassislardan biri hisoblanadi. Manz o'z tadqiqotlarida Samarqand sarbadorlari faoliyatiga ham to'xtalib o'tadi. Uning fikricha, 1365-yildagi voqealar Amir Temurning keyingi siyosiy faoliyatiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan [12; 87].

Manz sarbadorlar harakatini Amir Temur hokimiyatga kelishi arafasidagi siyosiy kuchlar muvozanatining muhim elementi sifatida baholaydi. U sarbadorlar va Temur o'rtasidagi munosabatlarni XIV asr Movarounnahr siyosiy tarixining muhim masalalaridan biri deb hisoblaydi.

Markaziy Osiyo tarixshunosligida sarbadorlar harakatining talqini. Mustaqillik yillarida O'zbekiston va Markaziy Osiyo tarixshunosligida sarbadorlar harakatini o'rganishga bo'lgan qiziqish sezilarli darajada ortdi. Bu davr tadqiqotchilari sovet davri tarixshunosligidagi ayrim biryoqlama yondashuvlardan voz kechib, harakatning milliy-ozodlik, siyosiy va ijtimoiy mohiyatini kengroq tahlil qilishga harakat qildilar. Ayniqsa, Samarqand sarbadorlari faoliyati, ularning mo'g'ullarga qarshi kurashdagi o'rnini hamda Amir Temur siyosiy faoliyati bilan bog'liq jihatlar yangi tarixiy qarashlar asosida qayta baholana boshladi. Q. Usmonov tadqiqotlarida sarbadorlar. Tarixchi olim Usmonov sarbadorlar harakatini Movarounnahrdagi siyosiy parokandalik va mo'g'ullar bosqiniga qarshi xalq qarshiligi bilan bog'liq holda tahlil qiladi. Olimning ta'kidlashicha, XIV asrning 60-yillariga kelib Chig'atoy ulusi hududida markaziy hokimiyat deyarli izdan chiqqan edi. Turli amirlar o'rtasidagi nizolar va mo'g'ullar bosqinlari natijasida mamlakatda murakkab siyosiy vaziyat yuzaga kelgan [13]. Usmonovning fikricha, aynan ana shunday sharoit Samarqand sarbadorlarining siyosiy maydonga chiqishiga sabab bo'lgan. U

Mavlonozoda, Abu Bakr Kalaviy va Xurdaki Buxoriy boshchiligidagi harakatni xalqning mo'g'ullar bosqiniga qarshi tashkilotchilik faoliyatining yorqin namunasi sifatida baholaydi [13; 142].

P. Ravshanov qarashlari. Sarbadorlar harakati tarixini chuqur o'rgangan tadqiqotchilardan biri Poyon Ravshanov hisoblanadi. Ravshanov sarbadorlar harakatini mo'g'ullar hukmronligiga qarshi shakllangan keng xalq harakati sifatida tavsiflaydi. Uning fikricha, sarbadorlik g'oyalari faqat Xuroson bilan cheklanib qolmagan, balki Movarounnahr hududlariga ham tarqalgan [14; 194]. Olim sarbadorlar harakatining ildizlari 1365-yildan ancha oldingi davrga borib taqalishini taxmin qiladi. U Samarqand sarbadorlarining qisqa vaqt ichida katta xalq ommasini safarbar eta olganligini ularning oldindan shakllangan siyosiy tayanchga ega bo'lganligi bilan izohlaydi [14; 198]. Ravshanovning tadqiqotlari sarbadorlar harakatining milliy-ozodlik xarakterini asoslashga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir.

MUHOKAMA (DISCUSSION). Tarixshunoslik tahlili shuni ko'rsatadiki, sarbadorlar harakatiga berilgan baholar turli davrlarda turlicha bo'lgan. O'rta asr mualliflari sarbadorlarni asosan Amir Temur davri voqealari bilan bog'liq holda tasvirlaganlar. Ularning asarlarida harakatning mustaqil siyosiy mohiyati yetarli darajada ochib berilmagan. Rossiya sharqshunosligi vakillari, xususan Bartold va Yakubovskiy, sarbadorlar harakatini ilmiy muomalaga olib kirgan bo'lsalar-da, ular asosan siyosiy voqealar tahliliga e'tibor qaratganlar. G'arb tarixshunosligida esa sarbadorlar masalasiga yanada kompleks yondashuv shakllandi. Jean Aubin diniy omillarni, John Masson Smith manbashunoslik masalalarini, Denise Aigle esa harakatning ijtimoiy-siyosiy mohiyatini chuqurroq tahlil qildi.

Markaziy Osiyo tarixshunosligida esa sarbadorlar harakati ko'proq mo'g'ullar hukmronligiga qarshi xalq qarshiligi va milliy ozodlik kurashi nuqtai nazaridan talqin qilinmoqda. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, sarbadorlar harakatining mohiyatini faqat siyosiy, diniy yoki ijtimoiy omillar bilan tushuntirish yetarli emas. Harakat ushbu omillarning o'zaro uyg'unlashuvi natijasida yuzaga kelgan murakkab tarixiy hodisa hisoblanadi.

NATIJALAR (RESULTS). O'rta asr manbalari mualliflari hisoblangan Sharofiddin Ali Yazdiy va Nizomiddin Shomiy sarbadorlar harakatini Samarqand mudofaasi bilan bog'lab tasvirlaydi. Muiniddin Natanziy esa Movarounnahrda siyosiy beqarorlik va xalqning og'ir ahvolini batafsil yoritadi. Rossiya sharqshunosligi vakili V.V. Bartold sarbadorlarni Samarqandni himoya qilgan siyosiy kuch sifatida ko'radi. A.Yu. Yakubovskiy esa sarbadorlar va Amir Temur o'rtasida tarixiy bog'liqlik mavjudligini ta'kidlaydi. G'arb tarixshunosligida esa Jean Aubin sarbadorlar harakatining diniy asoslarini ochib beradi.

XULOSA (CONCLUSION). Tadqiqot natijalari sarbadorlar harakati tarixshunosligining bir necha bosqichlarda shakllanganligini ko'rsatadi. Birinchidan, sarbadorlar haqidagi dastlabki ma'lumotlar Sharofiddin Ali Yazdiy, Nizomiddin Shomiy va Muiniddin Natanziy asarlarida uchraydi. Ushbu manbalar keyingi tadqiqotlar uchun asos bo'lib xizmat qilgan. Ikkinchidan, rus sharqshunosligi vakillari sarbadorlar harakatini ilmiy tadqiqot obyektiga aylantirib, uning siyosiy tarixini o'rganishga katta hissa qo'shganlar. Uchinchidan, g'arb tarixshunosligi sarbadorlar harakatining diniy, ijtimoiy va mafkuraviy jihatlarini yoritish orqali tarixshunoslikni yangi bosqichga olib chiqdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Бартольд В.В. Сочинения. Т. II. Ч. 2. – М.: Наука, 1964.
2. Бартольд В.В. Сочинения. Т. IV. – М.: Наука, 1966.
3. Якубовский А.Ю. Тимур (Тамерлан). – М.; Л.: Изд-во АН СССР, 1946.
4. Гафуров Б.Г. Таджики: в 2 т. Т. 2. – Душанбе: Ирфон, 1989.
5. Шараф ад-Дин Али Йазди. Зафар-наме. – Тегеран, 1957.
6. Низам ад-Дин Шами. Зафар-наме. – Тегеран, 1363 х.ш.
7. Aubin J. Émirs mongols et vizirs persans dans les remous de l'acculturation. – Paris: Association pour l'avancement des études iraniennes, 1995.
8. Smith J.M. The History of the Sarbadar Dynasty 1336–1381 A.D. and Its Sources. – The Hague: Mouton, 1970.
9. Spuler B. Die Mongolen in Iran. – Berlin: Akademie-Verlag, 1955.
10. Bosworth C.E. The New Islamic Dynasties. – Edinburgh: Edinburgh University Press, 1996.
11. Aigle D. The Mongol Empire between Myth and Reality. – Leiden: Brill, 2014.
12. Manz B.F. The Rise and Rule of Tamerlane. – Cambridge: Cambridge University Press, 1989.
13. Usmonov Q., Sodiqov M., Burxonova S. O'zbekiston tarixi. – Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2016.
14. Ravshanov P. Qashqadaryo tarixi. – Toshkent: Fan, 1995.
15. Muiniddin Natanziy. Muntaxab ut-tavorix-i Muiniy. – Tehron, 1383.